DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-06 Pages: 41-47

Oriental Journal of Philology



DEFINITION OF THE CONCEPTS OF FAṢĀḤAT AND BALĀĞAT

Salimakhon A. Rustamiy
Professor, Doctor of Philological Sciences
Department of Oriental Languages, Oriental University
Email: salimarustamiy@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: philological sciences, faṣāḥat, balāğat, phrase, meaning, situation, addresser, addressee.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: Article is devoted to definition of the basic concepts of science of balāğat which was one of the philological disciplines in middle ages. The article values the meanings of such terms designating defects in the speech as tanāfur (incompatibility), ğarāba (strangeness), muẖālafatu-l-qiyās (contradiction with language norm), ḍa‘fu-t-ta‘līf (weakness of the construction), ta‘qīd (complexity) are revealed and analizes such notions as lafẓ (word), kalām (speech), ma‘nā (meaning), ḥāl (situation), mutakallim (speaker), muẖāṭab (addressee) as structures of the system of balāğat.

FASOHAT VA BALOG‘AT TUSHUNCHALARI DEFINITSIYASI

Salimaxon A. Rustamiy
professor, filologiya fanlari doktori
Sharq tillari kafedrasi, Oriental universiteti
Email: salimarustamiy@gmail.com
O‘zbekiston,Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: filologik fanlar, fasohat, balog‘at, kalom, ma’no, holat, mutakallim, muxotab.

Annotatsiya: Maqola o‘rta asrlarda filologik fanlar tarkibidan o‘rin olgan balog‘at ilmiga oid asosiy tushunchalar definisiyasiga bag‘ishlangan. Unda so‘z va kalomning fasohatli bo‘lishiga mone’lik qiluvchi *tanofur, g‘aroba, muxolafatu-l-qiyos, za’fu-t-ta’lif, ta’qid* atamalari ma’nosi yoritilgan, shuningdek, *lafz, kalom, ma’no, hol, mutakallim*, *muxotab* kabi tushunchalar balog‘at tizimi tarkibi sifatida tahlil qilingan.

ДЕФИНИЦИЯ ПОНЯТИЙ FAṢĀḤAT И BALĀĞAT

Салимахон А. Рустамий
Профессор, доктор филологических наук
Кафедра восточных языков, Университет Ориентал
Email: salimarustamiy@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: филологические науки, faṣāḥat, balāğat, фраза, значение, ситуация, адресат, адресант.

Аннотация: Статья посвящается дефиниции основных понятий науки balāğat, которая являлась одной из филологических дисциплин в средние века. В статье выявлены значения таких терминов, обозначающие дефекты в речи как, tanāfur (несовместимость), ğarāba (чуждость), muẖālafatu-l-qiyās (противоречие с языковой нормой), ḍa‘fu-t-ta‘līf (слабость конструкции), ta‘qīd (сложность) и анализированы понятия lafẓ (слова), kalām (фраза), ma‘nā (значение), ḥāl (ситуация), mutakallim (оратор), muẖāṭab (адресат) как структуры системы balāğat.

Kirish

Inson boshqa mavjudotlardan fikrlay olish xususiyati bilan mumtoz qilingan ekan, o‘z navbatida, unga fikrni ifoda eta olish, ya’ni nutq (so‘zlash) qobiliyati ham in’om etilgan.

Nutq orqali kalom (as-Sakkariy, 1937, s. 35) hosil bo‘ladi va inson o‘z fikrini biror tilda ifodalangan kalom ko‘rinishida taqdim etadi. Bu o‘z navbatida fikrni ifodalashda vosita bo‘ladigan tilning lug‘at boyligi va qonun-qoidalarini puxta egallashni taqozo etadi. Shuning uchun ham olimlar qadimdan tilning tabiati va til orqali fikrni ifodalash usullarini o‘rganishga katta e’tibor berganlar va unga oid maxsus fanlar tizimi vujudga kelgan. Bunday tizim sharqda adab ilmlari, g‘arbda filologik fanlar deb atalgan.

Tadqiqotning usullari. Balog‘at ilmiga oid tushunchalarni tadqiq qilish arab tili va adabiyotiga oid nazariy ma’lumotlar mazmunini to‘g‘ri anglash, zamonaviy tilshunoslikning lingvopoetika, lingvoestetika, lingvostilistika bilan bog‘liq masalalarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda ilmiy tavsiflash, komponent tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natija. Sharq olimlari tildagi fasohat tushunchasini fikrni aniq ifodalash maqsadida fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan kalomga nisbatan qo‘llab kelmoqdalar.

Estetik jihatdan barkamol kalomda fasohat va balog‘at birlashadi. Binobarin, fasohat kalomning tashqi, ya’ni shakl go‘zalligini ta’minlasa, balog‘at ichki, ya’ni ma’no go‘zalligini yaratib beradi. Bundan fasohatsiz yoki balog‘atsiz kalomda nuqson paydo bo‘ladi va uning mukammal husnga ega bo‘la olmasligi anglashiladi.

Muhokama. Adab ilmlari tushunchasiga «kishini kalom aytish va yozishda xato qilishdan asraydi» (Siddiq, 1890), «fikrni tovush va yozuv belgilari vositasida ifodalab, o‘zaro tushunarli bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladigan bilimlarni o‘rgatadi» (al-Tahonawiy, 2006) kabi ta’riflar berilgan. Adab ilmlari tarkibiga lug‘at, sarf, ishtiqoq, nahv, ma’oniy, bayon, aruz, qofiya, insho, she’r farzi, muhozara (ma’ruza), rasmu-l-xat kabi ilmlarning kiritilgani (Rustamiy, 2014, pp. 42; al-Tahonawiy, 2006, pp. 13) bu fikrlar isboti uchun yetarli dalil bo‘la oladi.

Hozirga kelib bu tizim tarkibidagi lug‘at (leksika), sarf (morfologiya), ishtiqoq (derivatsiya), nahv (sintaksis) masalalari tilshunoslikning grammatika bo‘limida o‘rganilsa, aruz, qofiya, insho, she’r farzi, muhozara (ma’ruza) masalalari adabiyotshunoslik fani tarkibi hisoblanadi, ma’oniy va bayon masalalari qisman sintaksisga kiritilgan bo‘lsa-da, sharq olimlari ularni alohida o‘rganadilar.

Tilni adab ilmlari tizimi asosida tadqiq qilish uning moddiy va ma’noviy xususiyatlarini to‘laligicha ochib berishga xizmat qilishi bilan filologiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adab ilmlari tizimidagi ma’oniy va bayonga so‘z san’atiga oid badi’ ilmi ham qo‘shilib balog‘at ilmini tashkil qilgan.

Ma’lumki, arab tili va adabiyoti nazariyasiga oid asarlar ilk o‘rta asrlarga kelib paydo bo‘la boshladi (Shidfar, 1974, pp. 7). Balog‘at ilmining shakllanishi ham chuqur tarixga ega bo‘lib, arabshunos olimlar tomonidan ma’lum darajada o‘rganilgan (Shawqiy, 1965). Arab tili va adabiyoti bilan bog‘liq qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan balog‘at to‘liq shakllangunga qadar uning tarkibiy qismlari bo‘lgan bayon, ma’oniy va badi’ o‘ziga xos ravishda rivojlanib borgan.

Balog‘at ilmining tarkib va tartib jihatdan bir asarga jamlanib, ilmiy jihatdan yetuk darajaga kelishi, dastlab Abdulqohir Jurjoniy (XI asr), so‘ngra Abu Ya’qub Sakkokiy (XII asr)ning benazir mehnatlari samarasidir. Bu borada Jurjoniyning «Asroru-l-balog‘a» (al-Jurjoniy, 2002), «Dalailu-l-i’jaz» va Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» (al-Sakkokiy, 1937) asarlari diqqatga sazovor.

Balog‘atga oid asarlar fasohat tushunchasiga izoh berish bilan boshlanadi. Arab tilida balog‘atli kalom, avvalo, shu tilda kechadigan til hodisalari va qonuniyatlariga mos ravishda tuzilishi va bu uning shakliy va ma’noviy go‘zalligini ta’minlashga xizmat qilishi kerak. Zero, kalom go‘zalligini ta’minlovchi muhim omil fasohatdir.

Fasohat lafz (so‘z), kalom va so‘zlovchiga nisbatan qo‘llanadi. So‘z, kalom va so‘zlovchining fasohatli bo‘lishida quyidagi shartlar mavjud:

1. So‘z (al-mufrad) fasohatining belgisi – unda tovushlar nomutanosibligi (tanofuru-l-huruf), notanishlik (g‘aroba) va noto‘g‘ri so‘z yasalish (muxolafatu-l-qiyos) xususiyatlarining mavjud emasligi.

So‘z fasohatida tanofuru-l-huruf tushunchasi so‘zning fonologik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, uni tashkil qilgan tovushlar tarkibi va tartibi ularni talaffuz qilishda qiyinchilik tug‘diradigan holatga nisbatan qo‘llanadi. Bu holat so‘zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham birdek maqbul emas, chunki bunday holatda tovushlarni maxrajidan chiqarish qiyin bo‘lgani uchun talaffuz ravon bo‘lmaydi, oqibatda tinglovchi ularni eshitib qabul qilish va ma’nosini anglab olishga qiynaladi. Bunday nutq tinglovchini o‘zining muxlisiga aylantira olmaydi.

G‘aroba ma’noni yorita olmaydigan, begona hisoblangan yoki ma’nosini tushunishda qiyinchilik tug‘diruvchi so‘zlarga xos bo‘lsa, muxolafatu-l-qiyos – tilda mavjud bo‘lgan morfologik prinsiplarga zid holda so‘z yasashdir.

Mazkur xususiyatlar til estetikasiga zid hisoblangani bois nutqda go‘zallik yaratishga monelik qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib fasohat va fasohatli kalomning ta’rifi quyidagicha shakllantirilgan (Jorim and Amin., 1999, pp. 5):

الفصاحة: الظهور والبيان... والكلام الفصيح ما كان واضح المعنى، سهل اللفظ، جيد السبك. و لهذا وجب أن تكون كل كلمة فيه جارية على القياس الصرفي، بينة في معناها، مفهومة عَذبة سلِسة .

Ya’ni fasohat – zohir bo‘lish (ochiq-oydin ko‘rinish), ravshanlik va aniqlik demakdir, ya’ni fasohatda ma’noni fasih kalom bilan bayon qilish talab qilinadi. Fasih kalom ma’no aniqligiga ega, oson tushuniladigan, ravon aytiladigan, yoqimli eshitiladigan va sarf qoidalariga mos tushadigan so‘zlardan tashkil topgan bo‘lishi kerak.

Demak, so‘z talaffuz uchun qulay fonologik tarkibga ega bo‘lishi, tanish va tushunarli bo‘lib, morfologik prinsiplarga mos ravishda yasalgan bo‘lsagina shakl jihatdan sharqona fasih, g‘arbchasiga estetik talablarga javob bergan hisoblanadi.

2. Kalom fasohatining belgisi – tuzilishida zaiflik (za’fu-t-ta’lif), so‘zlar nomutanosibligi (tanofuru-l-kalimat), ma’nosida chalkashlik (ta’did) bo‘lmaydi. Bu yerda kalomning tuzilishida zaiflik – unda grammatik jihatdan noqislik mavjudligi; so‘zlar nomutanosibligi – har biri fasih bo‘lsa-da, bir kalomda kelgani uchun talaffuzning qiyinlashishiga olib keladigan so‘zlarning qo‘llangani; ma’noda chalkashlik – maqsad qilingan narsa (dalolat)ning yoritib berilmagani. Bulardan tashqari so‘zlar takrorining ko‘pligi va ketma-ket kelgan izofa ham kalom fasohatiga zarar yetkazadi.

3. Mutakallim, ya’ni so‘zlovchi fasohati – maqsadni fasih lafzlar vositasida ifodalash malakasi.

Demak, sharq olimlari tildagi fasohat tushunchasini fikrni aniq ifodalash maqsadida fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan kalomga nisbatan qo‘llab kelmoqdalar.

Estetik jihatdan barkamol kalomda fasohat va balog‘at birlashadi. Binobarin, fasohat kalomning tashqi, ya’ni shakl go‘zalligini ta’minlasa, balog‘at ichki, ya’ni ma’no go‘zalligini yaratib beradi. Bundan fasohatsiz yoki balog‘atsiz kalomda nuqson paydo bo‘ladi va uning mukammal husnga ega bo‘la olmasligi anglashiladi.

Tilda balog‘at tushunchasi kalom va so‘zlovchiga nisbatan qo‘llanadi.

Balog‘at so‘zining o‘zagi [بلغ] bo‘lib, arab tilida bu o‘zakdan yasaladigan ikkita fe’l mavjud. Birinchisi – «yetdi, erishdi; yetuk bo‘ldi» ma’nolaridagi /بَلَغَ/ fe’li bo‘lib, undan hosil bo‘ladigan /بُلوغٌ/ masdari (harakat nomi) «erishish; yetuklik» ma’nosiga ega [2]; ikkinchisi – /بَلُغَ/ fe’li «so‘zga usta, fasohatli, balog‘atli bo‘ldi, notiq bo‘ldi» ma’nosida, uning masdari /بلاغة/ «notiqlik, so‘zamollik; balog‘at», ya’ni gapning fasohatli so‘zlardan tuzilib, vaziyat taqozosiga mos bo‘lishini anglatadi (Ibrohimov va b., 2017, pp. 215). Ilmdagi istilohga ikkinchisi asos bo‘lgan.

Balog‘at ilmiga berilgan ta’rif quyidagicha (Sosa, pp. 325-326):

البلاغة: هي موافقة الكلام لمقتضي الحال مع فصاحته .

Ya’ni: Balog‘at – kalomning hol(at) taqozosiga mos hamda fasohatli bo‘lishi.

Demak, kalomning balog‘ati – fasohatli kalomning taqozo etilgan vaziyatga mosligi orqali belgilanadi.

Balog‘at tizimini kalom, ma’no, ibora, hol (holat, vaziyat), so‘zlovchi (mutakallim), murojaat qilinayotgan shaxs (muxotab) kabilar tashkil qiladi.

Mazkur atamalar haqida qisqacha to‘xtalib, quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin:

1. Kalom – كلامarabcha so‘z bo‘lib, «bog‘langan so‘zlar; gap, jumla; nutq, gap-so‘z» kabi lug‘aviy ma’nolarga ega. Istilohda: eng katta fonetik birlik, shu bilan birga muloqot birligi sifatida nutqning eng kichik mustaqil bo‘lagi. Uning istilohiy ma’nosiga bir necha ta’rif berilgan. Shulardan eng mashhurlari – «Kalom so‘zlovchi ixtiyor qilgan ma’lumotni yetkazishga mo‘ljallangan tugal ma’noga ega murakkab lafz» yoki «Kalom – ma’noning lafz yoki lafzlardan tarkib topgan nutqiy shakli». Kalom to‘rtta shartga asoslangan, ya’ni u lafz, ya’ni alifbodagi tovushlardan iborat bo‘lishi, haqiqatan (so‘zning kalomda ishtirok etish holati.) yoki taqdiran (so‘z tushib qolgan holat) ikki yoki undan ortiq kalima (so‘z)dan tashkil topishi, mufid (tugal ma’noga ega bo‘lishi) va kalomdagi lafzlar ma’nolarga dalolat (ishora) qilishi lozim.

Abdulqohir Jurjoniy kalomning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib bergan: kalom bo‘lmasa, bilimning foydasi biluvchining o‘zi bilan chegaralanar edi; kalom bilimlarning suratlarini kashf qiladi, ya’ni maxsus fonetik belgilar orqali eshitiladigan shaklga keltiradi. Buning natijasida

ularning hosilalari va martabalarini ko‘rsatib beradi; kalom bilimlarning sirlarini oshkor qiladi; kalom bilimlarning mohiyatini ochib beradi.

2. Ma’no مَعْنًى so‘zi arab tilida عَنَى (hisobga olmoq, nazarda tutmoq) fe’lidan yasalgan bo‘lib, «ma’no, mazmun; tushuncha, g‘oya, mohiyat» (Baranov) ma’nolariga ega. «Lisonu-l-arab» lug‘atida «ma’no, tafsir, ta’vil – bir narsa» ekani aytilgan. Ma’no tilda shu ma’noning nutqiy (shakliy) ifodasi hisoblangan lafz orqali ayon bo‘ladi. Lafz va ma’no o‘zaro mustahkam bog‘langan bo‘lishi shart. Ma’no uni ifodalash uchun o‘rinli tanlangan so‘z vositasidagina aniq va tushunarli bo‘ladi. Tanlangan lafz ma’noga xizmat qilishi kerak ekani barcha olimlar tomonidan ta’kidlab kelinmoqda. Bundan tashqari ma’noni balog‘atli kalom orqali ifoda etish uchun so‘z tanlash so‘zlovchidan katta mahorat talab qiladi, chunki balog‘at ilmi o‘ziga til estetikasini namoyon qilish masalasini ham qamrab olgan. Bu borada «mutakallim tilda mavjud bo‘lgan barcha boy imkoniyatdan foydalana olishi kerak» va «agar ma’no ajoyib lafzdan iborat libosga burkansa, yanada mazmunli va maftunkor bo‘lishi mumkin» (al-Johiz, 1968, pp. 375; Gafurova, 2012, pp. 3-12), deydi Abu Uston al-Johiz.

Shu o‘rinda IX asrda Johizning arab adabiyoti nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan «Kitab al-bayan va-t-tabyin» asarida keltirilgan va Abdulqohir Jurjoniy (XI asr) tomonidan rivojlantirilgan ma’no va shakl birligi masalasi balog‘at ilmining bosh masalalaridan biri ekanini ta’kidlash lozim.

3. Ibora عَبَرَ (ta’bir qilmoq, ifodalamoq, tushuntirmoq) so‘zining masdari (harakat nomi). عِبَارَةٌ – «ta’bir qilish, ifodalash» (Baranov). «Lisonul arab» lug‘atida: ibora – aql (ḍamīr – aql, yashirin fikr, niyat)dagi narsalarni til orqali ifodalash.

4. Hol حال (holat, vaziyat) – muxotab (tinglovchi)ning unga yetkazilayotgan ma’lumotni bilish-bilmaslik va boshqa holatlari. So‘zlovchi bu holatni e’tiborga olib, vaziyatga mos ravishda kalom tuzishi lozim. Shuningdek, so‘zlovchi kalom tuzishda tinglovchining zukkolik yoki tez fahmlay olmaslik kabi xislatlarini ham e’tiborga olishi muhim. Shunda u ma’lumotni yetkazash uchun ma’noni ta’bir qilishda tinglovchining holatidan kelib chiqib lo‘nda, me’yorida va batafsil ifoda turlaridan birini tanlaydi.

5. Mutakallim متكلم– arabcha تكلم (so‘zlamoq, gapirmoq) fe’lining sifatdoshi “so‘zlovchi, gapiruvchi” ma’nolariga ega, shu ma’nosidan kelib chiqib, balog‘at ilmida so‘zlovchi ma’nolarida qo‘llanadi.

6. Muxotab مخاطب – arabcha خاطب (so‘zlashmoq, gaplashmoq; murojaat qilmoq) fe’lining majhul sifatdoshi «nutq orqali murojaat qilinayotgan», ya’ni eshituvchi, tinglovchi (o‘quvchi) ma’nosiga ega, shu ma’nosidan kelib chiqib, balog‘at ilmida eshituvchi ma’nolarida qo‘llanadi.

Xulosa. Kalom fasohatiga tanofur, g‘aroba, muxolafatu-l-qiyos, za’fu-t-ta’lif, ta’qid mone’lik qiladi.

Lafz, kalom, ma'no, hol, mutakallim, muxotab kabi tushunchalar balog'at ilmi tarkibini tashkil qiluvchi tushunchalar jumlasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Al-Jahiz. (1968). Book of statement and clarification. Kitab al-bayan va al-tabyin. T. 1-3. – Beyrut. (in Arabic)
2. Al-Jurjani, Abdul Qaher. (2002). Secrets of Rhetoric. Asrar al-balag'a. – Beyrut - Lubnan. (in Arabic)
3. Al-Sakaki, Yusuf. (1937) Key to the Sciences. Miftah al-ulum. – Al-Qahira. (in Arabic)
4. Al-Tahonawi, Muhammad Ali. (2006). Art and Science Terminology Index. Kashshaf istilahat al-funun va al-ulum. https://ar.wikipedia.org/wiki/shamela.ws. (in Arabic)
5. Jarem, Ali and Amin, Mustafa. (1999) Clear Eloquence. Statement. Meanings. Rhetoric. Al-balag'a al-wadiha. Al-bayan. Al-ma'ani. Al-badi'. – Al-Qahira. (in Arabic)
6. Gaffarova, U. (2012). Formation and development of Arabic rhetoric until the 14th century // Scientific notes of the Khujand State University named after Academician B. Gafurov. Stanovleniye i razvitiye arabskoy ritoriki do XIV veka // Ucheniye zapiski Xudjandskogo gosudarstvennogo universiteta. Issue 2. – Xo'jand. – P. 3-12. (in Russian)
7. Hasan Khan, Siddiq. (1890). Alphabet of Sciences. Abjad al-ulum. http://lisaan.net/abjad-al-uloom-by-siddiq-hasan-khan-d-1890 (in Arabic)
8. Ibrohimov N., Aripov A. et al. (2017). Al-Qumus. Arabic-Uzbek Dictionary. Al-Qumus. Arabcha-o'zbekcha lug'at. Volume I. – Tashkent. (in Uzbek)
9. Rustamiy S. (2024). Key Terms and Definitions in Balāğat. International Journal of Social Science And Human Research. Volume 07 Issue 06 June 2024. – Pp. 3755-3758. (in English)
10. Rustamiy, A. (2014). The spiritual world of Hazrat Navoi. Navoiyning badiiy mahorati. – Tashkent: Navroz. (in Uzbek)
11. Saleh Sasa. Al-Munjid in Syntax, Grammar, Rhetoric and Prosody. Al-munjid fi al-i'rab va al-qawaid va al-balag'a va al-'arud. – Dar al-Raed. (in Arabic)
12. Shawqi, Dayf. (1965) Rhetoric: Development and History. Al-balag'a. Tatawwur va tatix. – Al-Qahira. (in Arabic)
13. Shidfar, B. (1974) Figurative system of classical Arabic literature. Obraznaya sistema arabskoy klassicheskoy literaturi (VI–XII vv.). – Moskwa: Nauka. (in Russian)